

ISSUES OF ACHIEVING FINANCIAL INDEPENDENCE OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

D.J. Murodova

Bukhara Institute of engineering and technology

Senior lecturer in the Department of Economics

ABSTRACT

Higher education institutions are important in meeting the needs of the knowledge societies that are rising today.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni o'qitish va ishlab chiqarish bo'yicha an'anaviy ish bilan bir qatorda, oliy ta'lim muassasalariga turli xil vazifalar yuklangan va yangi vazifalar turibdi. Ijtimoiy rivojlanishning milliy ustuvor yo'nalishlarida ro'y berayotgan o'zgarishlar, bilimlar iqtisodiyotiga o'tish va O'zbekistonning jahon reytinglaridagi munosib o'rnini ta'minlashda oliy ta'lim muassasalarining o'rni va ahamiyati alohida. Oliy ta'lim muassasalarining to'laqonli faoliyat ko'rsatishi uchun muhim qadam – ularga mustaqillik berishdir, o'z o'rnida bunday o'zgarishlar ta'lim muassasalari oldida ta'limiy va ilmiy-tadqiqot faoliyatlarini jamiyat va iqtisodiyotning yangi ehtiyojlariga doimiy moslashtirib borishdek yangicha bir chaqiruvni haqli ravishda ro'yoga chiqaradi.

2007 yil Lissabon deklaratsiyasi universitet avtonomiyasining to'rt turini belgilaydi:

A) akademik avtonomiya (o'quv rejalari, dasturlari, o'qishlari to'g'risida qaror qabul qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi);

B) tashkiliy avtonomiya (universitet tuzilmasini mustaqil ravishda shakllantirish imkoniyatini beradi);

V) kadrlar avtonomiyasi (xodimlarni ishga qabul qilish, ish haqining darajasini erkin belgilash, lavozimlar pillapoyasidan mustaqil ravishda ko'tarish va oshirish);

G) moliyaviy avtonomiya (moliyaviy resurslarni erkin shakllantirish va

taqsimlash to'g'risida qaror qabul qilish).

O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida 2017–2021-yillarda kadrlar tayyorlashning xalqaro standartlarini joriy etish va o'qitish sifatini baholash asosida oliy ta'lim muassasalari faoliyati sifati va samaradorligini oshirish; oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish kvotalari bosqichma-bosqich oshirish maqsadlari ustivorlik kasb etgan edi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mahalliy universitetlarni QS va Times Higher Education kabi xalqaro agentliklar reytingiga kiritish bo'yicha yo'l xaritasi tasdiqlandi O'zbekistonning Boloniya jarayoniga kirishi, yagona oliy ta'lim makonini yaratish va ta'lim ishtirokchilarining akademik harakatchanligini ta'minlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar rejalari joriy etildi. 2021 yilning 24 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-61-sonli "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi va ushbu qaror doirasida respublikada muvafaqqiyatli faoliyat yuritayotgan 35 ta OTMlarga moliyaviy mustaqillik berildi. 2019-yilda Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra, O'zbekistonning kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi 1000 ta eng yaxshi xalqaro reytinglar qatoriga kiritilishi va eng ilg'or hisoblangan Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetlari reytingning yuqori 500 taligiga kirishi belgilangan. 2020-yilda Oliy o'quv yurtlarining o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish to'g'risidagi nizom tasdiqlandi, unda talabalarning kredit birliklarini o'zlashtirish va boshqa oliy o'quv yurtlari tomonidan tan olinishi jarayoni batafsil yoritilgan. "Oliy ta'lim muassasalarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda transformatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarori qabul qilindi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida eng ahamiyatli mustaqillik – bu moliyaviy avtonomiyadir. Moliyaviy avtonomiya bir necha parametrlar bilan belgilanadi: davlat moliyalashtirish tsiklining davomiyligi (davlat yoki nazorat qiluvchi organ moliyalashtirish miqdorini qanchalik kam belgilasa, universitet o'z byudjetini

shakllantirishda shunchalik erkinlikka ega bo'ladi va shunga ko'ra, uzoq muddatli strategiya o'zi uchun belgilanishi mumkin), davlat moliyalash turi, xarajat moddalarini mustaqil ravishda aniqlash imkoniyati, foydani tejash qobiliyati, bino-inshootlarga egalik qilish, o'quv to'lovlari miqdorini belgilash imkoniyati va boshqalar.

Universitetlarning moliyaviy mustaqilligining kengayishi davlat va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar mexanizmini o'zgartirishni nazarda tutadi va ko'pchilik Evropa mamlakatlari oliy ta'limni eng qimmat ijtimoiy xizmatlardan biri sifatida tan olingan bir sharoitda ayniqsa dolzarb bo'lib qoladi. Zamonaviy shart-sharoitlarda universitetlarning bosqichma-bosqich iqtisodiy mustaqil tuzilmalarga aylantirilishi kuzatilmoqda, ular yirik korporatsiyalar sifatida boshqariladi va o'z moliyaviy faoliyati natijalari uchun davlat oldida javobgardir.

Moliyaviy avtonomiyani baholash uchun Yevropa universitetlar assotsiatsiyasi **Avtonomiya ko'rsatkichlari kartasi** (Autonomy Scorecard) deb nomlanuvchi analitik portal ishlab chiqildi. Unda Yevropadagi universitetlar avtonomiyasining hozirgi holati va boshqaruv islohotlari, oliy ta'lim muassasalari ma'lumotlarini to'plash, solishtirish, universitet avtonomiyasi va ilg'or tajriba almashish bo'yicha milliy siyosatlarni chuqur tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar tizimiga e'tibor qaratadi: davlat moliyalashtirish davrining davomiyligi; davlat moliyalashtirishining turi; qaytish shartlari bo'yicha tashqi mablag'larni jalb qilish imkoniyati; foyda olish va taqsimlash imkoniyati; bino-inshootlarga egalik qilish imkoniyati; talabalar (Evropa Ittifoqi mamlakatlari) uchun bakalavr va magistratura, aspirantura va doktoranturaning ta'lim va malaka darajasidagi o'qish to'lovlari; talabalar (Evropa Ittifoqi fuqarolari bo'lmagan) uchun bakalavr va magistratura, aspirantura va doktoranturaning ta'lim va malaka darajalarida o'qish to'lovlari.¹

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligi nisbiy tushincha hisoblanadi. Universitetlarning mustaqilligi ularning davlatdan to'liq mustaqilligini anglatmaydi: OECDga a'zo mamlakatlarning

aksariyatida davlat ta'lim sohasida ijobiy natijalarga erishgani uchun universitetlar byudjetlarining 70 foizigacha mablag' ajratadi, bu esa universitetlardagi transformatsiya jarayonlariga davlat ta'sirining asosiy dastagi va asosiy vositasi haliyam saqlanib turganligini anglatadi.. Shu bilan birga, oliy ta'limni moliyalashtirish sxemalari oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash xarajatlarini qoplash darajasi, potensial talabalarni tanlash mexanizmi, ta'lim xarajatlarini belgilashda universitetning avtonomiya darajasi, xususiy oliy o'quv yurtlarini davlat tomonidan moliyalashtirish tizimiga kiritish masalalarini o'rganish oliy ta'lim muassasasining moliyaviy mustaqilligiga baho berish shart-sharoitlarini aniqlab beruvchi ko'rsatkichlar bo'la olishi mumkin. Ya'ni, resurslarni taqsimlash va daromadni davlat tomonidan emas, balki universitet tomonidan ishlab chiqish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin. Bunda oliy ta'lim muassasasi davlat dasturlari doirasida mutaxassislar tayyorlash va ilmiy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha davlat buyurtmalarini bajarish orqali davlat bilan aloqada bo'lib turaveradi va tegishli moliyaviy munosabatlarga kirishaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6 noyabr 2020 yildagi PF6108-sonli "O'zbekistonning Yangi Taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmfan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 29 oktabr 2020 yildagi PF-6097-sonli "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 6 iyul 2022 yildagi PF-165-sonli "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni
3. 2021 yilning 24 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-61-sonli "*Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida*" qarori

4. Z. Jumakulov, Q. I. Kunduzova. Financial Independence in the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan: Results and Conclusions. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 19 Dec 2021, pages 236-241
5. L. M. Volosnikova. O principe akademicheskoy avtonomii. Universitet, obshestvo, gosudarstvo.
6. N.G. Kuzmina. Zarubejnyy opit finansirovaniya obrazovaniya. Vestn. Volgogr. gos. un-ta. Ser. 3, Ekon. Ekol. 2008. № 2 (13)
7. Azimov, B. F., & Qudratova, G. M. (2023). Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish. Science and Education, 4(7), 476-481.
8. Azimov, B. F. Formirovaniye i sovershenstvovaniye strategii podderjki innovatsionnoy deyatelnosti v regionax Respubliki Uzbekistan / B. F. Azimov // Molodoy ucheniy. – 2022. – № 12(407). – S. 63-65. – EDN VQOYFQ.
9. Azimov, B. F., & Rakhimova, D. D. (2022). THE ROLE OF RESEARCH
10. AND INNOVATIONS IN THE MODERNIZATION OF THE REGIONAL
11. ECONOMY. Conferencea, 43-47.
12. Azimov B.F, Rakhimova D.D., SCIENTIFIC FOUNDATIONS OF AN INNOVATIVE APPROACH TO ECONOMIC DEVELOPMENT AND POVERTY REDUCTION IN UZBEKISTAN, International Journal of Advanced Research in Management and Social Sciences (IJARMSS), 2022, 11(3), PP26-32
13. B.F. Azimov, A.CH. Boboyev, & J.J. Abdullayev (2022). OPREDELENIYE EKSPORTNIX DRAYVEROV REGIONA PUTEM ANALIZA VNESHNETORGOVOGO OBOROTA BUXARSKOY OBLASTI. Ucheniy XXI veka, (7 (88)), 20-24.

¹<https://eua.eu/issues/4:autonomy-and-governance.html>